# Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bilish uslublari

# Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bilish uslublari

## Reja

1. iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va iqtisodiy nazariyaning vujudga kelishi

2. iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti

3. iqtisodiyot nazariyasi fanining tahlil uslubi

# Иқтисодиёт қамров даражасига қараб қуйидаги турларга бўлинади



## “iqtisodiyot nazariyasi ” fan sifatida shakllanishi jarayonida vujudga kelgan asosiy g'oyaviy oqimlar:

**merkantilizm** - jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat bo'lib, u savdoda, asosan tashqi savdoda paydo bo'ladi va kupayadi, deb tushuntiradi. merkantilizm - italyancha “mercante” so'zidan olingan bo'lib, “savdogar ” degan ma'nosini anglatadi. bu oqimning namoyondalari: v. staffod, t. man, A. monkretьen , jon lou, g. skaruffi va boshqalar.

**fiziokratlar -** jamiyatning boyligi qishloq xo'jaligida vujudga keladi degan g'oyani ilgari suradilar. bu ta'limotning asoschisi f. kene (1694-1774 y.) hisoblanadi.

**klassik siyosiy iqtisod -** boylik faqat qishloq xo'jaligida vujudga emas balki sanoat, transport, qurilish va boshqa sohalarda ham yaratilishini isbotlab berdi.

u.petti (1623-1686 y.) boylikning manbai er va mehnat ekanligini e'tirof etgan. mehnat boylikning otasi, er uning onasi degan ibora unga tegishlidir.

A.smit “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot” (1776 y) asarida talab va taklif asosida shakllanadigan erkin narxlar asosida bozor o'z-o'zini tartibga solishi (“ko'rinmas qo'l”) g'oyasini ilgari suradi. insonni faollashtiradigan asosiy rag'bat shaxsiy manfaatdir deb ko'rsatadi.

d.rikardo qiymatning turli sinflar daromadlari va foydaning yagona manbai mehnat ekanligini ko'rsatadi.

## iqtisodiyot nazariyasidagi yangi oqimlar (XIX asr ohiri va XX asr boshlari )

**marjinalizm vakillari (marginal-keyingi, qo'shilgan) - keyingi tovar nafliligi, qo'shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borishi nazariyalarini ishlab chiqqan. keyingi tovar nafliligining kamayib borishi qonuni bu oqimning asosiy prinsipi hisoblanadi. shunga ko'ra, narx xarajatga bog'liq bo'lmay keyingi naflilik asosida belgilanadi. marjinalizm asoschilari k. menger, f. vizer, e. bem-baverk, u. jevons hisoblanadi.**

***neoklassik maktab*** **(asoschisi Alьfred marshall) bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning aralashuvini cheklash g'oyasini ilgari suradi. bozor mexanizmining buzilishi monopoliyalar vujudga kelganda ham yuz berishini ko'rsatadi. funksional bog'lanish g'oyasini asoslaydi, bozor narhini belgilovchi omillar talab va taklifdan iborat deb hisoblaydi.**
**bu maktab vakillaridan l.valьras umumiy iqtisodiy muvozanatlar modelini ishlab chiqarishga, i.shumpeter esa iqtisodiy tizimlar o'zgarishining kuchlarini ko'rsatib berishga harakat qilgan.**

**keynschilik – rivojlangan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solib turish zarurligini asoslashga qaratiladi. j.m.keyns “bandlik foiz va pulning umumiy nazariyasi” (1936 y.) nomli kitobida bunday tartibga solish yalpi talabga hamda shu orqali inflyasiya va bandlikka ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.**

# Иқтисодий жараёнларни илмий билишнинг усуллари

- Илмий абстракция усули
- Таҳлил
- Синтез
- Эксперимент
- Мантиқийлик ва тарихийликнинг бирлиги усули
- Макроиқтисодий ва микроиқтисодий таҳлилни қўшиб олиб бориш.
- Индукция ва дедукция
- Икки томонлама ёндашув усули
- Таққослаш, статистик, математик ва график усулларидан

**iqtisodiy tahlil uslubi** - bu ilmiy bilishga yondashish yo'llari, tamoyillari, qonun-qoidalari va aniq hodisalar tizimi.

**ilmiy bilish usullari**

**dialektik usul**

iqtisodiyotga bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro aloqada bo'lgan turli bo'g'inlardan iborat yaxlit bir tizim sifatida qarab, unda ro'y beradigan jarayonlar doimiy o'zgarishda (oddiydan murakkablikka, quyidan yuqoriga) va rivojlanishda deb hisoblaydi.

**ilmiy abstraksiya**

mantiqiy tahlil paytida hodisa va jarayonlarning ikkinchi darajali belgilari fikridan chetlashtirib hamda eng asosiy belgilarni ajratib olish orqali ularning mohiyatini ochib berishga harakat qilish.

**tahlil va sintez usuli**

tahlil – bu o'rganilayotgan voqea-hodisalarni alohida qismlarga ajratib, sintez esa ularni yaxlit bir butun qilib birlashtirish orqali mohiyatini ochib berish.

# Таҳлил ва синтез усули

Нарса ёки ҳодисаларни тадқиқ этиш жараёнида уларни алоҳида элементларга ажратилиши ёки маълум уйғунликда бирлаштириш орқали ҳақиқий билимга эришиш

Таҳлил – бутунни алоҳида қисмларга ажратиш орқали изчиллик билан ўрганиш



Корхона иқтисодий фаолияти самарадорлиги

- Ишлаб чиқариш самарадорлиги
- Бўлимлар ва цехлар бўйича
- Жараёнлар бўйича
- Маҳсулот турлари бўйича

Синтез – ўрганилган қисмлардан олинган хулоса ва натижаларни бир бутун яхлит жараён деб қараб умумий хулоса чиқариш

- Бўлимлар ва цехлар бўйича
- Жараёнлар бўйича
- Маҳсулот турлари бўйича



Корхона иқтисодий фаолияти самарадорлиги

Индукция – фикрнинг хусусий фактлардан умумий фактлар томон ҳаракат



Хусусий ҳолдаги тадкиқот жараёни → Хусусий гипотеза ёки коида → Умумий қоида ёки қонун

Дедукция – фикрнинг умумий фактлардан хусусий фактлар томон ҳаракати



Умумий қоида ёки қонун → Хусусий гипотеза ёки коида → Хусусий ҳолдаги тадкиқот жараёни

**tarixiylik va mantiqiylik usuli**

tarixiylik - iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tarixiy rivojlanish davrlari nuqtai-nazardan mantiqiylik esa ularning ichki qonuniy bog'lanishlari orqali tahlil qilish.

**eksperiment**

Amalga oshirilishi lozim bo'lgan iqtisodiy chora-tadbirlarni sinov tariqasida iqtisodiyotning alohida bo'g'inlarida qo'llash. bu usul islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyot inqiroz va turg'unliklarga uchragan davrlarda alohida muhim ahamiyatga ega.

**matematik va statistik usul**

iktisodiy hodisalar miqdoriy o'lchamga ega bo'lganligi sababli ularni tahlil qilishda matematik amallardan keng foydalaniladi. statistik usul- statistik kuzatish, tanlash, alohida belgilari bo'yicha guruhlarga ajratish va o'rtacha miqdorlar chiqarish kabilarni o'z ichiga oladi.


Иқтисодий қонун
Умумий иқтисодий қонунлар – кишилик жамияти ривожланишининг барча босқичларида амал қилади.
Хусусий ёки даврий иқтисодий қонунлар – инсоният жамияти тараққиётининг маълум босқичларида амал қилади.
Махсус, ўзига хос иқтисодий қонунлар – алоҳида олинган иқтисодий тизим шароитида амал қилади.